

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA OILAVIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH STRATEGIYALARI

Ernazarova Nilufar Nozimjonovna

*Namangan davlat texnika universiteti Buxgalteriya hisobi kafedrası katta o'qituvchisi,
e-mail: presentutor@gmail.com, tel: +998945065110*

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanib, O'zbekistonda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda kambag'allik darajasini qisqartirishning samarali strategiyalari tahlil qilinadi. Mamlakatda kambag'allikni kamaytirish va iqtisodiy barqarorlikka erishish maqsadida davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarning ahamiyati oshib bormoqda. Tadqiqot davomida O'zbekistonning turli hududlarida oilaviy tadbirkorlik loyihalarining hozirgi holati o'rganildi hamda mavjud muammolar aniqlanib, yechimlari ishlab chiqildi. Bundan tashqari, oilaviy tadbirkorlik uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash shakllari, moliyaviy imtiyozlar va maslahat xizmatlarining samaradorligi ham baholandi. Maqolada davlat-xususiy sheriklik dasturlarini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan institutsional va tashkiliy jihatlar ham batafsil tahlil etildi. Natijada, oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi kambag'allikni qisqartirishda muhim rol o'ynashi aniqlandi va ushbu jarayonni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: davlat-xususiy sheriklik, oilaviy tadbirkorlik, kambag'allikni qisqartirish, iqtisodiy barqarorlik, institutsional mexanizmlar, moliyaviy imtiyozlar, mahalliy rivojlanish, maslahat xizmatlari, kichik biznes, ijtimoiy rivojlanish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash.

KIRISH

Bugungi kunda kambag'allikni qisqartirish global miqyosdagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Barqaror rivojlanish dasturining (SDGs) 2030-yilga mo'ljallangan maqsadlari orasida kambag'allikni tugatish asosiy ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan [1]. Ushbu vazifani hal qilishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining keng qo'llanilishi xalqaro hamjamiyat tomonidan tavsiya etilmoqda. Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) va Jahon bankining hisobotlariga ko'ra, davlat-xususiy sheriklik loyihalari kambag'allik darajasini kamaytirish bilan bir qatorda, kichik biznesni rivojlantirish va iqtisodiy o'sishni tezlashtirishda ham samarali natijalar bermoqda [2].

O'zbekistonda ham kambag'allikni qisqartirish masalasiga davlat siyosati darajasida alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-iyundagi "Kambag'allikni qisqartirish va tadbirkorlikni rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori mamlakatda kichik biznes va ayniqsa oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy va tashkiliy asoslarini mustahkamlamoqda [3]. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tadbirlari oilaviy tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy va soliq imtiyozlarini kengaytirish, kredit olish shartlarini yengillashtirish hamda tadbirkorlarga maslahat xizmatlarini keng taqdim etish orqali amalga oshirilmoqda. Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalar ko'pincha iqtisodiy samaradorligi yuqori va ijtimoiy muammolarning yechimiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi [4]. O'zbekistonda ham 2022-yilning avgust oyida

qabul qilingan “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi yangi qonun davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda va aynan oilaviy biznes uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda [5]. Bu esa, mamlakatda kambag‘allikni qisqartirish siyosatining samaradorligini oshirish imkoniyatini yanada kengaytiradi.

Shunday qilib, davlat-xususiy sheriklik orqali oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va aholining turmush darajasini oshirishning muhim omili sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, ushbu mexanizmlarni yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish muhim ilmiy-amaliy vazifa bo‘lib qolmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Davlat-xususiy sheriklik orqali oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirish masalasi bo‘yicha xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlarda turli xil nazariy va amaliy jihatlar keng tahlil qilingan.

Jahon banki tomonidan tayyorlangan hisobotlarda davlat-xususiy sheriklik loyihalarining iqtisodiy va ijtimoiy ta‘siri batafsil yoritilgan. Hisobotlarda ta‘kidlanishicha, davlat-xususiy sheriklik kichik biznes subyektlarini moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash orqali iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantiradi va kambag‘allik darajasini samarali ravishda kamaytiradi. Bunda loyihalarning uzoq muddatli barqarorligini ta‘minlash muhim jihat sifatida qayd etiladi [6].

O‘zbekiston sharoitida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining samaradorligini o‘rgangan Qodirov va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotda moliyaviy va institutsional jihatdan mavjud bo‘lgan muammolar batafsil tahlil qilingan. Mualliflar mazkur muammolarning yechimi uchun davlat tomonidan taqdim etilayotgan moliyaviy vositalar va institutsional islohotlarni taklif qiladilar. Tadqiqotda davlat organlari va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikning optimal shakllarini aniqlash muhimligi ko‘rsatib berilgan [7].

Xalqaro valyuta jamg‘armasi tomonidan nashr etilgan qo‘llanmada davlat-xususiy sheriklik loyihalarini boshqarishning strategik va operatsion mexanizmlari hamda loyihalarning samaradorligini baholash metodologiyasi keltirilgan. Mazkur manbada davlat va xususiy sheriklar o‘rtasida tavakkalchiliklarni muvozanatli taqsimlash hamda loyihalarni boshqarish mexanizmlari batafsil yoritilgan [8].

Mahalliy iqtisodiyotchi Umarov o‘z tadqiqotlarida davlat-xususiy sheriklik loyihalarining kichik biznes subyektlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy foydasini chuqur tahlil qiladi. Uning fikricha, davlat tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy va maslahat xizmatlari oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi va bu jarayonlarning institutsional qo‘llab-quvvatlanishini kuchaytirish lozim [9].

Jahon iqtisodiy forumining hisobotlarida davlat-xususiy sheriklikning ijtimoiy innovatsiyalarni joriy qilishdagi ahamiyati ko‘rsatiladi. Ayniqsa, oilaviy tadbirkorlik orqali amalga oshiriladigan loyihalar aholining ijtimoiy himoyasini oshirib, turmush sifatini yaxshilashga sezilarli ta‘sir qilishi ta‘kidlanadi [10].

Mahalliy tadqiqotchilar Rahimov va Karimova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy mexanizmlar batafsil yoritilgan. Ularning fikricha, davlat tomonidan ajratilayotgan

subsidiyalar va imtiyozli kreditlar oilaviy tadbirkorlik subyektlarining barqarorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi [11].

BMT Taraqqiyot dasturining hisobotlarida davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan loyihalar orqali kambag'allikni qisqartirishning global amaliyotlari ko'rsatib berilgan. Bu amaliyotlar rivojlanayotgan mamlakatlar uchun tajriba sifatida juda qimmatli ekanligi qayd etiladi [12].

Abdullayev tomonidan olib borilgan tadqiqotda mahalliy darajadagi davlat-xususiy sheriklik loyihalari tahlil qilinadi va qishloq joylarida oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi kambag'allikni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi alohida urg'ulanadi. Shuningdek, mahalliy resurslardan samarali foydalanish yo'llari haqida tavsiyalar beriladi [13].

OXFAM xalqaro tashkiloti tomonidan nashr etilgan hisobotda global miqyosdagi tajribalar asosida davlat tomonidan oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash strategiyalari batafsil tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqotda samarali davlat dasturlarining muvaffaqiyat omillari va ulardan foydalanish usullari tavsiya etilgan [14].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot metodologiyasi davlat-xususiy sheriklik asosida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish strategiyalarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda sifatli va miqdoriy tadqiqot usullari kompleks tarzda qo'llanildi. Tadqiqot nazariy asoslarini shakllantirish uchun mavjud xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlar, hisobotlar hamda davlat qaror va qonunlari keng qamrovda tahlil qilindi. Bu jarayonda deduktiv yondashuv qo'llanildi. Adabiyotlarni sharhlash orqali mavzuning dolzarbligi, mavjud muammolar va yechimlar konseptual jihatdan o'rganildi. Tadqiqotning empirik qismi sifatida holat tadqiqoti (case-study) usulidan foydalanildi. O'zbekistonning turli hududlarida davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilgan oilaviy tadbirkorlik loyihalari tanlab olinib, ular chuqur o'rganildi. Statistik tahlilda SPSS dasturidan foydalanilib, miqdoriy ma'lumotlar yordamida korrelyatsion va regressiv tahlillar amalga oshirildi. Bu tahlillar yordamida davlat-xususiy sheriklik loyihalari samaradorligining turli omillar bilan bog'liqligi, jumladan moliyaviy ko'mak, maslahat xizmatlari va soliq imtiyozlarining ta'siri baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur bo'limda Namangan viloyati misolida davlat-xususiy sheriklik asosida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda kambag'allikni qisqartirish yo'nalishida amalga oshirilgan chora-tadbirlarning 2020–2024-yillar oralig'idagi samaradorligi chuqur tahlil qilinadi. Tahlilda foydalanilgan statistik ma'lumotlar orqali hududda davlat va xususiy sektor hamkorligida olib borilgan loyihalar soni va hajmi, tadbirkorlik subyektlarining rivojlanish sur'atlari, bandlik darajasiga ta'siri, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samarasini baholash imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, mazkur loyihalarning iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri bilan bir qatorda, ijtimoiy natijalar, ayniqsa, kambag'allik darajasining qisqarishi va aholi turmush farovonligining oshishiga qo'shgan hissasi atroflicha ochib beriladi.

Tahlil davomida viloyatdagi loyiha soni, moliyaviy hajmi, tadbirkorlik subyektlari va bandlik ko'rsatkichlarining o'zgarishi hamda ushbu loyihalarning hududda kambag'allik darajasiga ta'siri statistik ma'lumotlar yordamida baholanadi.

1-jadval.

Namangan viloyatida davlat-xususiy sheriklik loyihalarining soni va qiymati⁵²

Yillar	Loyihalar soni	Umumiy qiymati (mlrd. so'm)
2020	15	25,3
2021	21	38,7
2022	28	47,5
2023	35	62,1
2024	42	79,8

Manba: Namangan viloyati hokimligi rasmiy statistikasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmalari

Jadvaldagi ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Namangan viloyatida davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilayotgan loyihalar soni va moliyaviy ko'lam yil sayin barqaror ravishda kengayib bormoqda. Xususan, 2020-yilda jami 15 ta loyiha amalga oshirilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich sezilarli darajada oshib, 42 taga yetdi. Loyihalar sonining bunday jadal sur'atda o'sishi, davlat tomonidan tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan e'tibor va moliyaviy imtiyozlarning kengaytirilishi bilan izohlanadi. Loyihalarning umumiy qiymat ko'rsatkichi ham besh yillik davr ichida sezilarli darajada ortib, dastlabki 25,3 mlrd. so'mdan 2024-yilda 79,8 mlrd. so'mgacha yetdi. Bu o'sish, o'z navbatida, viloyatda iqtisodiy faollikning kuchayishi va oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratdi.

2-jadval.

Namangan viloyatida oilaviy tadbirkorlik subyektlarining soni va bandlik ko'rsatkichlari⁵³

Yillar	Tadbirkorlik subyektlari soni	Bandlik ko'rsatkichlari (ming kishi)
2020	3,520	18,6
2021	4,280	22,9
2022	5,100	27,3
2023	6,050	32,7
2024	7,120	38,9

Manba: Namangan viloyati Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmalari

Ushbu jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ayon bo'lishicha, Namangan viloyatida oilaviy tadbirkorlik subyektlarining soni hamda ular orqali yaratilgan bandlik imkoniyatlari izchil va sezilarli ravishda ortib bormoqda. Xususan, 2020-yilda 3,520 ta bo'lgan oilaviy tadbirkorlik subyektlari soni, 2024-yilga kelib ikki barobardan ko'proq oshib, jami 7,120 taga yetgan. Ushbu o'sish sur'ati, avvalo, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tadbirlarining samaradorligi va oilaviy tadbirkorlikka ajratilayotgan moliyaviy hamda institutsional yordam hajmining kengayganligi bilan izohlanadi. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlari sonining ortishi bilan bir qatorda, ushbu subyektlar tomonidan yaratilgan ish o'rinlari soni ham sezilarli darajada oshgan. Bandlik ko'rsatkichlari 2020-yildagi 18,6 ming kishidan 2024-yilda 38,9 ming kishiga

⁵² Namangan viloyati hokimligi rasmiy statistikasi ma'lumotlari

⁵³ Namangan viloyati Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi ma'lumotlari



yetgan. Bu esa, oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy faollik va aholi bandligini oshirishdagi o‘rni va ahamiyati tobora ortib borayotganligini ko‘rsatadi.


3-jadval.

Oilaviy tadbirkorlik faoliyatiga davlat tomonidan ajratilgan moliyaviy ko‘mak (mlrd. so‘m)⁵⁴

Yillar	Kreditlar	Subsidiyalar	Jami moliyaviy ko‘mak
2020	15,2	3,1	18,3
2021	22,4	4,6	27,0
2022	31,7	5,8	37,5
2023	44,1	7,2	51,3
2024	58,6	9,4	68,0

Manba: Namangan viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmalari

Ushbu jadvalda taqdim etilgan ko‘rsatkichlar tahlili orqali Namangan viloyatida davlat tomonidan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ajratilayotgan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash hajmi har yili izchil va sezilarli darajada o‘shib borayotganligini kuzatish mumkin. Xususan, moliyaviy yordamning umumiy hajmi kreditlar va subsidiyalar shaklida 2020-yildagi 18,3 mlrd. so‘mdan 2024-yilga kelib 68,0 mlrd. so‘mgacha oshdi. Shu bilan birga, kredit ajratish hajmi 15,2 mlrd. so‘mdan 58,6 mlrd. so‘mga, subsidiyalar esa 3,1 mlrd. so‘mdan 9,4 mlrd. so‘mgacha mutanosib ravishda o‘rdi. Ushbu moliyaviy mexanizmlarning barqaror kengaytirilishi oilaviy tadbirkorlik subyektlariga investitsion faollikni oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish uchun kuchli rag‘batlantiruvchi omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Natijada, viloyatda oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi va aholi turmush farovonligining oshishida davlat moliyaviy ko‘magining ahamiyati tobora ortmoqda.



1-rasm. Namangan viloyatida davlat-xususiy sheriklik loyihalarining kambag‘allik darajasiga ta’siri (foizda)⁵⁵

Namangan viloyatida davlat-xususiy sheriklik loyihalari samaradorligining ijtimoiy jihatlari, ayniqsa, kambag‘allik darajasining qisqarishidagi o‘rni yaqqol namoyon bo‘lmoqda (1-rasm).

Jumladan, tahlil qilinayotgan davrda, ya’ni 2020-yildan 2024-yilgacha bo‘lgan besh yillik oraliqda viloyatda kambag‘allik darajasi sezilarli darajada kamayganligi qayd etildi. Dastlabki 2020-yilda kambag‘allik darajasi 14,6 foizni tashkil etgan bo‘lsa, davlat va xususiy sektor hamkorligida amalga oshirilgan loyihalar samarasi natijasida bu ko‘rsatkich 2024-yilda 5,9 foizgacha pasaydi. Bunday sezilarli qisqarish, birinchi

⁵⁴ Namangan viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi ma’lumotlari

⁵⁵ Namangan viloyati Statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmalari

navbatda, oilaviy tadbirkorlikning kengayishi va yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, shuningdek, davlat tomonidan aholiga moliyaviy va institutsional ko‘makning kuchaytirilishi bilan bog‘liq. Bu natijalar davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining kambag‘allikka qarshi samarali vosita ekanligini tasdiqlab, kelgusidagi tadqiqotlar va strategiyalar uchun ham mustahkam amaliy asos yaratadi.

Namangan viloyatida davlat-xususiy sheriklik asosida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha qo‘llanilgan strategiyalar ijobiy va barqaror natijalarga olib keldi. Ushbu strategiya doirasida amalga oshirilgan loyihalar, moliyaviy imtiyozlar va institutsional qo‘llab-quvvatlash choralari natijasida tadbirkorlik subyektlarining soni hamda ularning iqtisodiy faolligi sezilarli darajada oshdi. Natijada, hududdagi bandlik darajasi yaxshilandi, aholi daromadlari ko‘paydi va buning natijasida viloyatdagi kambag‘allik darajasida sezilarli qisqarish kuzatildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot davomida davlat-xususiy sheriklik asosida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali Namangan viloyatida kambag‘allikni qisqartirish yo‘nalishidagi strategiyalar har tomonlama chuqur tahlil qilinib, quyidagi ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy tavsiyalar shakllantirildi:

Birinchi, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, davlat-xususiy sheriklik loyihalari iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlash va kambag‘allik darajasini kamaytirishda samarali vosita hisoblanadi. Bu loyihalar sonining 2020-yildagi 15 tadan 2024-yilga kelib 42 taga yetganligi, umumiy qiymatining esa 25,3 mlrd. so‘mdan 79,8 mlrd. so‘mga oshganligi bilan tasdiqlandi.

Ikkinchi, oilaviy tadbirkorlik subyektlarining soni va ular tomonidan yaratilgan ish o‘rinlarining sezilarli darajada ortishi, ayniqsa, bandlik ko‘rsatkichlarining 18,6 ming kishidan 38,9 ming kishiga yetishi, bu mexanizmlarning ijtimoiy samaradorligini tasdiqladi.

Uchinchi, davlat tomonidan ajratilgan moliyaviy yordamning hajmi va samaradorligi oshib, kreditlar hamda subsidiyalar umumiy ko‘lami 2020-yildagi 18,3 mlrd. so‘mdan 2024-yilga kelib 68,0 mlrd. so‘mga yetdi. Bu esa, oilaviy tadbirkorlik subyektlarining barqaror rivojlanishini ta‘minlash uchun yetarli darajada kuchli stimuly bo‘lmoqda.

To‘rtinchi, amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida Namangan viloyatida kambag‘allik darajasi 2020-yildagi 14,6 foizdan 2024-yilda 5,9 foizgacha kamaydi. Bu natijalar davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining kambag‘allik muammosiga qarshi kurashdagi rolini isbotlaydi.

Ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar:

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini rivojlantirishda sektorlararo integratsiyani kuchaytirish lozim. Bu borada sektorlararo kelishuvlar va hamkorlik platformalarini tashkil etish tavsiya etiladi.

Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini diversifikatsiya qilish, jumladan, imtiyozli kreditlash, subsidiyalar hajmini kengaytirish hamda moliyaviy risklarni kamaytirish uchun kafolat jamg‘armalarini tashkil etish kerak.

Hududlarda davlat-xususiy sheriklikni boshqarishning shaffof tizimini yaratish uchun monitoring va baholash tizimini takomillashtirish, buning uchun mustaqil ekspertiza va auditorlik faoliyatini kuchaytirish zarur.

Oilaviy tadbirkorlik subyektlarini amaliy maslahat xizmatlari bilan ta'minlash hamda ularning boshqaruv va marketing ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan treninglar va o'quv kurslarini tizimli tashkil qilish tavsiya etiladi.

Muvaffaqiyatli davlat-xususiy sheriklik loyihalari tajribasini ommalashtirish, boshqa hududlarga joriy qilish maqsadida ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar va ochiq muloqot platformalarini tashkil etish lozim.

Ushbu tavsiyalar amaliyotda qo'llanilganda davlat-xususiy sheriklik loyihalarining samaradorligini yanada oshirib, mamlakat miqyosida iqtisodiy barqarorlikka erishish va kambag'allikni kamaytirishga sezilarli hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. United Nations Development Programme. Sustainable Development Goals SDGs Goal 1 End poverty. – 2023.
2. International Monetary Fund, World Bank Group. Public Private Partnerships Reference Guide Version 3.0. – 2017. – URL: <https://ppp.worldbank.org> (дата обращения: 05.06.2025).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 17 iyundagi Kambag'allikni qisqartirish va tadbirkorlikni rivojlantirishning qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risidagi PQ 4752 son Qarori.
4. International Labour Organization. Decent Work and the Sustainable Development Goals A Guidebook. – Geneva, 2019.
5. O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 1 avgustdagi Davlat xususiy sheriklik to'g'risidagi O'RQ 786 son Qonuni.
6. World Bank Group. Public Private Partnerships Reference Guide Version 3.0. – Washington D C World Bank Publications, 2017. – 235 p.
7. Qodirov A., Nazarov B., Xolmirzayev S. O'zbekistonda davlat xususiy sheriklik asoslari va rivojlantirish yo'llari. – Toshkent: Iqtisod Moliya, 2021. – 256 b.
8. International Monetary Fund. Guidelines for Public Private Partnerships Strategic and Operational Considerations. – Washington D C IMF Publishing, 2018. – 190 p.
9. Umarov D. Davlat xususiy sheriklik va kichik biznesning ijtimoiy samaradorligini oshirish mexanizmlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. – 182 b.
10. World Economic Forum. Public Private Cooperation for Sustainable Development Best Practices and Lessons Learned. – Geneva: WEF Publications, 2020. – 210 p.
11. Rahimov M., Karimova S. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda moliyaviy mexanizmlarning samaradorligi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2023. – 215 b.
12. United Nations Development Programme. Innovative Approaches to Poverty Reduction through Public Private Partnerships. – New York: UNDP Publications, 2021. – 200 p.

13. Abdullayev Sh. Mahalliy darajada davlat xususiy sheriklik loyihalarining samaradorligini oshirish usullari O‘zbekiston misolida. – Toshkent: Moliya iqtisod, 2022. – 175 b.

14. OXFAM International. Supporting Family Entrepreneurship in Poverty Alleviation Strategies Global Perspectives and Recommendations. – Oxford: OXFAM Publishing, 2021. – 195 p.